



ANALYSIS OF THE STANDARDS BASE IN THE SYSTEM ORGANIZATIONS OF THE MINISTRY OF MINING AND GEOLOGY

Qurbanaliyev Murodali Mirzaliyevich

"CENTER FOR SUBSOIL USE" State Institution

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21467002>

ARTICLE INFO

Received: 02nd July 2026

Accepted: 04th July 2026

Online: 05th July 2026

KEYWORDS

Metallurgy, classification group of standards SMT, non-ferrous and ferrous metals, national standards.

ABSTRACT

This article reviews the classification groups of standards in the field of metallurgy in the organizations of the Ministry of Mining and Geology. Also, a total of 7969 standards belonging to various classification groups are used in the production processes of organizations under the Ministry of Mining and Geology. These standards cover mining, geological exploration, ore processing, metallurgy, labor protection, industrial safety, environmental requirements, product quality, testing and measurement methods, as well as management systems. The practical application of these standards serves to organize production processes based on unified technical requirements, ensure product quality and competitiveness, effectively use resources, and improve labor and industrial safety. At the same time, standards serve as an important normative basis for organizing the activities of enterprises in accordance with national and international requirements, increasing export potential, and introducing modern technologies.

АНАЛИЗ БАЗЫ СТАНДАРТОВ В СИСТЕМНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ МИНИСТЕРСТВА ГОРНОДОБЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ И ГЕОЛОГИИ

Курбаналиев Мурадали Мирзалиевич

Государственный центр «Центр по использованию недр»

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21467002>

ARTICLE INFO

Received: 02nd July 2026

Accepted: 04th July 2026

Online: 05th July 2026

KEYWORDS

Металлургия, классификационная группа стандартов СМТ, цветные и черные металлы,

ABSTRACT

В данной статье рассматриваются классификационные группы стандартов в области металлургии в организациях Министерства горного дела и геологии. В производственных процессах организаций Министерства горного дела и геологии используется в общей сложности 7969 стандартов, относящихся к различным классификационным группам. Эти стандарты охватывают горное дело, геологическую разведку, переработку руды, металлургию, охрану труда, промышленную



национальные
стандарты.

безопасность, экологические требования, качество продукции, методы испытаний и измерений, а также системы управления. Практическое применение этих стандартов способствует организации производственных процессов на основе единых технических требований, обеспечению качества и конкурентоспособности продукции, эффективному использованию ресурсов и повышению безопасности труда и промышленной безопасности. Одновременно стандарты служат важной нормативной базой для организации деятельности предприятий в соответствии с национальными и международными требованиями, повышения экспортного потенциала и внедрения современных технологий.

TOG'-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI TIZIM TASHKILOTLARIDA STANDARTLAR BAZASI TAHLILI

Qurbanaliyev Murodali Mirzaliyevich

“Yer qa’ridan foydalanish markazi” DM Standartlashtirish bo’limi boshlig’i

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21467002>

ARTICLE INFO

Received: 02nd July 2026

Accepted: 04th July 2026

Online: 05th July 2026

KEYWORDS

Metallurgiya,
standartlarning
tasniflash guruhiga SMT,
rangli va qora metallar,
milliy standartlar.

ABSTRACT

Ushbu maqola Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizim tashkilotlarida metallurgiya sohasida standartlarning tasniflash guruhlari ko'rib o'tiladi. Shuningdek, tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimiga qarashli tashkilotlarning ishlab chiqarish jarayonlarida turli tasniflash guruhlariga mansub bo'lgan jami 7969 ta standartdan foydalaniladi. Mazkur standartlar qazib olish, geologik qidiruv, ma'danlarni qayta ishlash, metallurgiya, mehnat muhofazasi, sanoat xavfsizligi, ekologik talablar, mahsulot sifati, sinov va o'lchash usullari, shuningdek, boshqaruv tizimlarini qamrab oladi.

Ushbu standartlarning amaliyotda qo'llanilishi ishlab chiqarish jarayonlarining yagona texnik talablar asosida tashkil etilishi, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish hamda mehnat va sanoat xavfsizligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, standartlar korxonalar faoliyatini milliy va xalqaro talablarga muvofiq tashkil etish, eksport salohiyatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun muhim normativ asos vazifasini bajaradi.

**KIRISH VA TADQIQOTNING
ASOSLANISHI**

Standartlashtirish bo'yicha texnik
qo'mitaning faoliyat sohasi milliy



standartlarning tasniflagichi (MST) kodlariga muvofiq belgilanadi hamda bir nechta tasniflash guruhlarini qamrab oladi. Mazkur tasniflash guruhlari texnik qo'mitaning standartlashtirish ishlarini muayyan sohalar bo'yicha tizimli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shulardan eng muhimlaridan biri **77-tasniflash kodi - «Metallurgiya»** hisoblanadi.

Ushbu tasniflash guruhi qora va rangli metallurgiya mahsulotlari, qotishmalar, metall prokati, quvurlar, simlar, metall buyumlar, metall materiallarning kimyoviy va mexanik xususiyatlari, sinov va nazorat usullari, texnik talablar, markirovkalash, qabul qilish qoidalari hamda mahsulot sifatiga oid standartlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, mazkur tasniflash kodi metallurgiya sohasida qo'llaniladigan xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor metall mahsulotlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilash, ularni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarida yagona texnik yondashuvni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, 77-tasniflash kodiga to'xtalib o'tamiz.

Metallurgiya bu rudalardan yoki boshqa xom ashyolardan metallarni olish, ularni qayta ishlash va ulardan qotishmalar va mahsulotlar yaratish jarayonlarini qamrab oluvchi fan, texnologiya va sanoat sohasi. Bu temir, po'lat va rangli metallar ishlab chiqarishni ta'minlaydi va global iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

O'zMSt 001da berilgan standartlarning milliy tasniflagichi kodlariga muvofiq TQ ning faoliyat

sohasi quyidagi tasniflash guruhlarini qamrab oladi:

77.020 Metallarni ishlab chiqarish

77.040 Metallarni sinash

(77.040.01 Umumiy metallarni sinash, 77.040.10 Metallarni mexanik sinash, 77.040.20 Metallarni putur etkazmaydigan sinash, 77.040.30 Sinashning metallografik va boshqa usullari, 77.040.99 Metallarni sinashning boshqa usullari)

77.060 Metallar korroziyasi

77.080 Qora metallar (77.080.01

Umumiy qora metallar, 77.080.10 Cho'yan, 77.080.20 Po'lat)

77.100 Ferroqotishmalar.

77.120 Rangli metallar (

77.120.01 Umumiy rangli metallar, 77.120.10 Alyuminiy va alyuminiy qotishmalar, 77.120.20 Magniy va magniy qotishmalar, 77.120.30 Mis va mis qotishmalari, 77.120.40 Nikel, xrom va ularning qotishmasi, 77.120.50 Titan va titan qotishmasi, 77.120.60 Qo'rg'oshin, rux, qalay va ularning qotishmasi, 77.120.70 Kadmiy, kobalt va ularning qotishmasi, 77.120.99 Boshqa rangli metallar va ularning qotishmasi)

77.140 Cho'yan va po'latdan yasalgan buyumlar (77.140.01 Umumiy

cho'yan va po'latdan yasalgan buyumlar, 77.140.10 Termo ishlov beriladigan po'lat, 77.140.15 Betonni armaturalash uchun po'lat, 77.140.20 Kesmaydigan po'lat, 77.140.25 Prujinali po'lat, 77.140.30 Bosim ostida ishlash uchun po'lat, 77.140.35 Instrumental po'latlar,

77.140.40 Maxsus magnit xossalari po'lat, 77.140.45 Legirlanmagan po'lat, 77.140.50 Listli po'lat prokati va yarim tayyor mahsulotlar, 77.140.60 Po'lat sim chivichlar va katanka (ingichka chiviq po'lat), 77.140.65 Po'lat sim, yo'g'on sim



arqon va bo'g'inli zanjirlar, 77.140.70
Po'lat profillar, 77.140.75 Po'lat quvurlar
va maxsus maqsadli quvurlar, 77.140.80
Cho'yan va po'lat quyma, 77.140.85
Cho'yan va po'lat cho'kich, 77.140.99
Cho'yan va po'latdan yasalgan boshqa
mahsulotlar

**77.150 Rangli metallar
mahsulotlari** (77.150.01 Umumiy rangli
metallardan yasalgan mahsulotlar,
77.150.10 Alyuminiydan tayyorlangan
mahsulotlar, 77.150.20 Magniydan
tayyorlangan mahsulotlar, 77.150.30
Misdan tayyorlangan mahsulotlar,
77.150.40 Nikel va xromdan
tayyorlangan mahsulotlar, 77.150.50
Titandan tayyorlangan mahsulotlar,
77.150.60 Qo'rg'oshin, rux, qalaydan
tayyorlangan mahsulotlar, 77.150.70

Kadmiy va kobaltdan tayyorlangan
mahsulotlar, 77.150.99 Rangli
metallardan yasalgan boshqa
mahsulotlar)

77.160 Kukunli metallurgiya

77.180 Metallurgiya sanoati uchun asbob-uskunalar

Bugungi kunda tog'-kon sanoati va
geologiya vazirligi tizim tashkilotlarining
Metallurgiya sohasida 860 tadan ortiq
standartlar mavjud bo'lib, metall hom
ashyosi va tayyor mahsulotlari ishlab
chiqishda foydalaniladi. Muallif
tomonidan foydalanilayotgan
standartlar milliy tasniflash kodlari
bo'yicha ajratib chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Foydalanilayotgan standartlar milliy
tasniflash kodlari

T/r	Standartlar soni	SMT kodi	T/r	Standartlar soni	SMT kodi
1	7	77.020		5	77.140.15
2	75	77.040		12	77.140.20
	11	77.040		3	77.140.25
	37	77.040.10		1	77.140.30
	16	77.040.20		2	77.140.35
	6	77.040.30		1	77.140.40
	5	77.040.99		1	77.140.45
3	7	77.060		61	77.140.50
4	50	77.080		21	77.140.60
	1	77.080		84	77.140.65
	16	77.080.01		29	77.140.70
	6	77.080.10		7	77.140.75
	27	77.080.20		11	77.140.80
5	70	77.100		7	77.140.85
6	219	77.120		7	77.140.99
	5	77.120	8	68	77.150
	2	77.120.01		2	77.150
	15	77.120.10		2	77.150.01
	7	77.120.20		14	77.150.10
	41	77.120.30		1	77.150.20
	20	77.120.40		29	77.150.30



	30	77.120.60			4	77.150.40
	7	77.120.70			1	77.150.50
	92	77.120.99			5	77.150.60
7	261	77.140			10	77.150.99
	3	77.140		9	95	77.160
	3	77.140.01		10	8	77.180
	3	77.140.10				

Bugungi kunda, jumladan, metallurgiya sohasida tarmoqni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida **10 dan ortiq milliy standart loyihalari ishlab chiqilib, belgilangan tartibda tasdiqlandi.** Ushbu standartlar metall mahsulotlariga qo'yiladigan texnik talablar, sinov va nazorat usullari, mahsulotlarni markirovkalash, xavfsizlik, sifatni baholash hamda ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishga oid me'yorlarni qamrab oladi. Mazkur milliy standartlarning amaliyotga joriy etilishi ishlab chiqarish jarayonlarini yagona talablar asosida tashkil etish, mahsulot sifati va ishonchliligini ta'minlash, texnologik intizomni mustahkamlash hamda mahalliy

mahsulotlarning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, ushbu standartlar xalqaro standartlar bilan uyg'unlashuv darajasini oshirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va metallurgiya tarmog'ining barqaror rivojlanishi uchun mustahkam me'yoriy asos yaratmoqda.

Standartlar mahsulotlar va xizmatlarning sifati, xavfsizligi hamda o'zaro mosligini ta'minlash uchun ishlatiladi. Ular ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar o'rtasida aniq qoidalarini belgilaydi.

2-jadval


Metallurgiya sohasida standartlarning belgilanishi, nomi va kodlari



№	Standart belgilanishi	Standart nomi	SMT kodi
1	O'zMSt 626:2025	Metalli reniy. Texnik shartlar	77.120
2	O'zMSt 563:2025	Konstruksion po'latdan elementlar va mahsulotlar. Umumiy texnik shartlar	77.120
3	O'zMSt 535:2025	Umumiy maqsadlar uchun, ruxlangan po'lat tasma. Texnik shartlar	77.140.50
4	O'zMSt 536:2025	Umumiy maqsadlar uchun, ruxlangan polimer qoplamali po'lat tasma. Texnik shartlar	77.140.50
5	O'zMSt 537:2025	Maishiy maqsadlar uchun metall mahsulotlar. Texnik shartlar	77.080.01
6	O'zMSt 872:2026	Yuqori soflikdagi tellur. Texnik shartlar	77.120
7	O'zMSt 873:2026	Yuqori soflikdagi selen. Texnik shartlar	77.120
8	O'zMSt 834:2025	Alumin profillar ishlab chiqarish uchun filerlar	77.180
9	O'zMSt 710:2025	Ruxlangan po'lat listdan tayyorlangan kuchaytiruvchi profillar	77.120
10	O'zMSt 943:2026	Kadmiy texnik shartlar	77.120.70

O'zbekiston metallurgiya sanoatining asosiy va muhim yo'nalishlaridan biri, bu respublika hududida joylashgan yirik metall

saqlovchi konlarni qazib olish va ishlab chiqarishga jalb etishdir va shunga respublikamizda barcha imkoniyatlar mavjud.



Bir qator foydali qazilmalar (metallar) bo'yicha O'zbekiston tasdiqlangan zaxiralar va istiqbolli rudalar jihatdan MDH dagina emas, balki butun dunyoda ham yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Ushbu ishlab chiqilgan standartlarning asosiy maqsadlari: mahsulotlar, jarayonlar, ishlar va xizmatlarning (bundan buyon matnda «mahsulot» deb yuritiladi) aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga, atrof



muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste'molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilishdan;

fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek aholining hamda xalq xo'jaligining ehtiyojlariga muvofiq holda mahsulot sifatini hamda raqobat qila olish imkonini oshirishdan;

barcha turdagi resurslar tejalishiga ko'maklashishdan, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashdan;

ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirishdan;

xalq xo'jaligi ob'ektlarining xavfsizligini ta'minlashdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Qisqacha xulosa qilib aytganda, metallurgiya yo'nalishida ishlab chiqilgan standartlar nafaqat metallurgiya sanoatining o'zida, balki

iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarida ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, ular qurilish sohasida mustahkam va sifatli qurilish materiallarini ishlab chiqarishda, transport va avtomobilsozlikda ishonchli hamda xavfsiz ehtiyot qismlar va konstruksiyalarni tayyorlashda, zargarlik sohasida qimmatbaho metallar sifati va sofligini ta'minlashda, sog'liqni saqlash tizimida tibbiy asbob-uskunalar va implantlar ishlab chiqarishda, shuningdek, oziq-ovqat sanoatida gigienik talablarga javob beradigan metall jihozlar va uskunalarini tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Shu bois, metallurgiya sohasida qabul qilingan standartlar mahsulot sifati, xavfsizligi, ishonchliligi va xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Standartlashtirish to'g'risida" gi O'RQ-800-sonli qonuni. – Toshkent, 2022-yil 3-noyabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmoni. – Toshkent, 2023-yil 11-sentyabr.
3. Aribjonova D.E. Metallurgiya asoslari // Darslik. – Toshkent: 2020. – 250 b.
4. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali elektron sayti
5. www.standart.uz – O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi
6. www.iso.com – Xalqaro standartlashtirish tashkiloti elektron sayti
7. www.ziyonet.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim portali
8. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari elektron sayti
9. <https://uzsti.uz/> - O'zbekiston standartlar instituti sayti